SCIENCE CONNECTS PEOPLE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF

2026 / No. 1(2)

Contemporary Pedagogical and Philological Research

M. QODIROVANING MATNSHUNOSLIK AMALIYOTIGA OID IZLANISHLARI (NODIRA IJODIDA)

Nurutdinova Malikaxon Sharabovna

Guliston davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: malika122yun@gmail.com

Annotatsiya. Mahbuba Qodirovaning Nodira asarlarini nashrga tayyorlashda matnshunoslik mahorati haqida so‘z boradi. Mahbuba Qodirova - adabiyotshunos va matnshunos olima. Matnshunoslikni o‘ziga xos talablari va xususiyatlari haqida fikr bildiriladi. Madaniy merosimizni yanada chuqurroq tadqiq etishga hamda uning zamonaviy ahamiyatini ko‘rsatib berishga har jihatdan yosh olimlar uchun M.Qodirovaning olib borgan ishlari dasturiamal bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: meros, mumtoz, adabiyot, matnshunos, manba, tadqiq qilish, nashr, did, savodxonlik, ahli ishq,husni ishq.

Аннотация. Обсуждаются текстовые навыки М.Кадыровой в подготовке произведений Надиры к печати. М.Кадыровой— литературовед и текстолог. Высказывается мнение о специфических требованиях и особенностях текстологии. Программа работы М. Кадыровой полезна молодым ученым во всех аспектах для дальнейшего изучения нашего культурного наследия и показа его современной значимости.

Ключевые слова: наследие, классика, литература, текстолог, источник, исследование, издание, вкус, грамотность, люди хорошая любовь.

Annotation. The textual skills of M. Kadirova in preparing the works of Nadira for publication are discussed. M. Kadirova is a literary critic and textual scholar. An opinion is expressed about the specific requirements and features of textual studies. The

program of M. Kadirova's work is useful for young scientists in all aspects to further research our cultural heritage and show its modern importance.

Key words: heritage, classics, literature, textualist, source, research, publication, taste, literacy, people of love, good love.

Mamlakatimizda o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab o‘zbek matnshunosligi sohaning amaliy yo‘nalishi tarzida tez rivojlandi. Matnlarni tayyorlash va nashr qilish bilan bog‘liq bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bu ishlarda S. Ayniy («Xamsa»ning qisqartirilgan nashri), Fitrat (Eski o‘zbek adabiyoti namunalari), I. Sultonov («Mezon ul-avzon»), P. Shamsiyev («Xamsa» – 1960), H. Sulaymonov («Xazoyin ul-ma’oniy» – 1958–61), S. G‘aniyeva («Majolis un-nafois» – 1961) kabi olimlarning roli katta bo‘ldi. O‘zbek adabiyotshunos olimlaridan S. Mirzaev, V. Zohidov, A. Qayumov, A. Hayitmetov, F. Karimov, S. Mutalibov, U. Dolimov, R. Majidiy, M. Qodirovalarning matnshunoslik amaliyotiga oid izlanishlari bu sohani yuksaltirishga ma’lum hissa bo‘lib qo‘shildi.

Adabiyot tarixini matnlarsiz, manbalarsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Binobarin, mumtoz adabiyot asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish, adabiyotimiz tarixi uchun muhim bo‘lgan manbalarni tadqiq qilish, nashrga tayyorlash va ilmiy iste’molga kiritish o‘ta zarur.

O‘zbek klassik poeziyasining buyuk siymolaridan biri XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida yashab ijod etgan Nodira hayoti va ijodini o‘rganish o‘z davridanoq boshlangan. Biz tarixdan bilamizki, Hakimxon To‘raning “Muntaxabut-tavorix”, Avazmuhammad Attorning “Tuhvatut-tavorix”, Ishoqxon To‘raning “Tarixi Farg‘ona”, Mushrifning “Ansobus-salotin va tavorixi xavoqin” kabi tarixiy asarlarda, Uvaysiyning “Voqeoti Muhammadalixon”, Nodir-Uzlatning “Haft gulshan” nomli dostonlarida Nodirani ijodiy barkamolligi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Uning ijodini bir qancha olim va adabiyotshunoslar qiziqib o‘rganishgan. Shoirlardan S.Ayniy, G’.G‘ulom, L.Olim, O’.Rashid, Muzayana Alaviya, olimlardan

O.Sharafutdinov, professor V.Zohidov, filologiya fanlari doktori A.Qayumov, T.Jalilov va filologiya fanlari doktori Mahbuba Qodirovalar Nodiraning hayoti va ijodi haqida kitoblar yozishgan.

Mahbuba Qodirova -adabiyotshunos va matnshunos olima. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi filologiya fanlari doktori. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va Adabiyot institutida stenografistka, katta ilmiy xodimi, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida katta, yetakchi ilmiy xodimasi Nodiraning ijodiy faoliyatini astoydil o‘rgandi va bir necha risolalar, monografiya, kitoblar, ilmiy nashrlarni o‘quvchilar uchun taqdim etgan.

Nodiraning adabiy merosi mumtoz adabiyotining serjilo qirrasidir. Mahbuba Qodirova Nodiraning devonini nashrga tayyorlashda o‘zgacha yondashgan. Shoiraning o‘zbek, fors-tojik tilida bitilgan yagona devoni ustida ishlaganda devon matnidagi xatoliklar, harflar o‘zgarishi, o‘chib ketgan yoki tamom bo‘lmay qolgan ayrim g‘azallarni bir-biri bilan solishtirib nuqsonlar ustida ishlab o‘quvchilarga taqdim etgan. “Nodira” devonini 1963-yil № 4182-sonli nashrga tayyorlagan. Olima devon bir qancha nuqsonlarga egaligini, ayrim misralar o‘chib ketganligini, kotib tomonidan ayrim so‘zlar xató ko‘chirilgani haqida ziyraklik bilan fikr bildiradi.

“Nodira” devoni O‘zFA ShI qo‘lyozmasi № 4182-sonli o‘zbekcha devoni, shoir Nadimning o‘g‘li Musallamxon otaning shaxsiy kutubxonasidan Nodiraning o‘zbekcha qo‘lyozma devoni asos qilib olingan va boshqa bayozlar, havaskorlarning qo‘lyozma daftaridan yig‘ib olingan, o‘zbekcha devonini nashrga M.Qodirova tayyorlagan. Sobiq SSR davrida mumtoz adabiyoti vakili Nodira ijodini o‘rganishdagi ilk nashrlaridan edi. Nashrga tayyorlashda ko‘maklashgan filologiya fanlari doktori Aziz Qayumovni qimmatli fikrlarini ham eslatib o‘tganlar. Va bugun ham buni e’tirof etish joiz.

Ikki tilda yozilgan bu devonda Nodiraning ijodiy merosi bir tomonlama o‘rganilgani, shoiraning ijodini tashkil etgan katta qismi fors-tojik tilida yozilgan

g‘azallari xaligacha o‘rganilmay chetda qolib ketayotganligi haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. O‘zbek tilidagi g‘azallarida Nodira, fors-tojik tilidagi g‘azallarida Maknuna taxallusi bilan ijod qilganini alohida ta’kidlab ketadi. Ushbu devonda Nodira taxallusini qo‘llagan.

“Nodira” devoni № 4182-sonli *41-97 betda*

Ahli ishq *aylar sening xokistaringni to‘tiyo,*

Sha’midin kuymakni kasb et, mazhabi parvona tut.

“Boqiy satrlar”da 28-betda

Husni ishq *aylar sening xokistaringni to‘tiyo,*

Sha’midin kuymakni kasb et, mazhabi parvona tut.

Yuqoridagi jumlalarni qo‘llanilishidagi **ahli ishq** jumlasi Nodira taxallusi bilan qo‘llayapti. **Husni ishq** – tojik tilida. Komila taxallusidagi g‘azalida qo‘llangan. M.Qodirova badiiy asarning matn zamiridagi yashirin ma’nolarini, botiniy jihatlarini mahorat bilan ochib berolgan. Hamda ikki xil ifodalagan. Mahbuba Qodirova matn ustida o‘ta noziklik va zukkolik bilan ishlagani ko‘rinib turipti. Lug‘atlardan, so‘zlardan unumli foydalangan. Devondagi g‘azallar matnini tayyorlashda keng omma bemalol tushunadigan qilib yondashgan.

“Nodira” devoni № 4182-sonli 27-83 bet

Qilurg‘a kunduzimni kecha xurshidi jamol uzra,

Parishon ayladi gisularin, subhimni shom aylab [11,83b]

#

Sahi qadlar *panohi, guljabinlar podshohisen,*

Chamanda sarvni ozod etar qadding g‘ulom aylab

“Boqiy satrlar”da 28-betda

Qilurg‘a kunduzimni kecha xurshidi jamol uzra,

Parishon ayladi gesularin, subhimni shom aylab [15,28b]

#

Sihi qadlar *panohi, guljabinlar podshohisen,*

Chamanda sarvni ozod etar qadding g‘ulom aylab

Sihi-rost*, baland, tik degan ma’noda qollanyapdi.*

Badiiy vositalarning, ayniqsa, poeziya tilining juda nozikligi va yorqinligi, chiroyli fikrlarni yorqin va nozik shaklda ifoda etgan. Sharq poeziyasidagi romantik tafakkurning eng muhim talablari va yutuqlaridan ekanligini matn tarkibida ayta olgan. Devonda Nodiraning fors-tojik tilidagi devonidagi kamchilik va nuqsonlarni ilovalarda aniq va tushunarli tarzda ko‘rsatib ketgan. Devonda 6-ilova bor. Tarixiy, adabiy va mifik ismlar, yonida shu ism bor g‘azallarning tartib raqamlari berilgan. Shoira she’rlaridagi bayt soni hamda Nodira asarlarining bibliografiyasi ham ko‘rsatilgan. Devondagi g‘azallar to‘la emasligi, taxallusi qo‘yilgan oxirgi baytlar yozilmaganligidagi kamchilik va xatolarni matnda tuzatib bergan. Xatolarni jadvallar asosida ilmiy sharhlab tushuncha qoldirgan. Albatta bu chuqur izlanishlar, mehnat va mashaqqatlar evaziga yuzaga olib chiqilgan asardir.

Adabiyotimizning mumtoz namunalariga e’tibor – ularning matnlarini saqlab qolish, o‘tmishdagilarini tiklash, kelajak avlodlarga yetkazish ishlari juda qadimdan amalda bo‘lib kelgan. Aynan shu an’anani olima M.Qodirova o‘zining ko‘plab qadimiy asarlarni nashrga tayyorlash bilan davom ettirgan jonkuyar olimadir.

Odatda, ko‘p o‘qilgan, doimiy ravishda adabiy jarayondan mustahkam o‘rin olgan, badiiy ehtiyojni muntazam qondirgan hamda qayta-qayta ishlangan asarlardir. Ayni ko‘chirilish jarayonida bu asarlar matn ko‘plab o‘zgarishlar, qo‘shimchalar, to‘ldirishlar bilan boyib boraveradi. Mahbuba Qodiravada ana shunday mahorat bor.

Shoira asarlarini rus va boshqa chet tillarga M.Qodirova tarjima qilgan. Mumtoz o‘zbek shoiralari — Zebuniso, Uvaysiy, Nodira, Dilshod Barno, Muslihabegim Miskin, Saodat Mushtariy, Anbar Otin kabi ijodkorlarning hayoti va ijodiy merosini o‘rganib, ilmiy risolalar, monografiyalar yozgan va ularning she’riy to‘plamlarini nashrga

tayyorlagan. “19-asr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri” asarida (1977) shu davr adabiyoti, shoiralari haqida ma’lumotlar berib o‘tgan.

Hozirgi kunda Respublikamizda qo‘lyozma yodgorliklarini o‘rganishga davlat miqyosida e’tibor qaratilmoqda. Bu madaniy merosimizni yanada chuqurroq tadqiq etishga hamda uning zamonaviy ahamiyatini ko‘rsatib berishga har jihatdan yosh olimlar uchun M.Qodirovaning olib borgan ishlari dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. М.,1965. 10с.

2. P.Shamsiyev. O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. Toshkent.1986. 27-bet.

3. A. Xaytmetov Matnshunoslik muammolari. Sharq yulduzi. 1982.№3 169 b.

4. Mahbuba Qodirova Nodira-Komila II-kitobi Toshkent-2004-yil

5. Laziz Qayumov “Qo‘qon fozillari ” Qo‘qon 2006-yil 16-bet

6. Po‘latjon Qayumov “Qo‘qand tarixi va uning adabiyoti” Toshkent 2011-yil 380-bet

7. Uvaysiy Devon O‘zSSR Toshkent – 1963-yil 248-bet

8. Ummat To‘ychiyev “O‘zbek adabiyotida badiiylik” Toshkent – 2011-yil 508-bet

9. Amiriy “Devon” O‘zSSR Toshkent - 1972-yil 360-bet

10. O‘zbek she’riyati atologiyasi O‘zSS Toshkent 1961-yil 440-bet

11. Nodira “Devoni”Oz.SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti. Toshkent-1963-

12. M.Qodirova “ Nodira” O‘zSSR Toshkent – 1965-yil 101-bet

13. Mahbuba aya Qodirova Nodira-Komila Toshkent - 2004-yil 208-bet

14. Mahbuba Qodirova She’riyat va muhabbat malikasi;Risolasi.\\Mas’ul muharir: S. Hasanov|.-T.: G’. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashri, 1998.-122 b.

15. Nodira Ey sarvi ravon:G‘azallar (Nashrga Tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi M.Qodiriva; Mas’ul muharir A.Qayumov)-T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.-144 b.

Internet manbasi

1. https://tilvaadabiyot.uz/f/10-son_filologiya_va_pedagogika.pdf.

2. https://tilvaadabiyot.uz/bosh-sahifa/product/2024-yil-8-son-muqova-mundarija.

3. https://uza.uz/oz/posts/nodira-ijodining-organilishi-tarixidan_592299

4. https://oak.uz/userfiles/files/2023-2-son.pdf.